

О'ZBEKISTONDA AYOLLARGA QARATILAYOTGAN E'TIBOR

*DTPI Pedagogika fakulteti
p.f.f.d (Phd). Sh.K.Maxmudov
2-bosqich talabasi - Balliyeva Sadoqat*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yurtimizda ayollarga nisbatan yaratilayotgan keng-ko'lamli imkoniyatlar xususida so'z yuritilib ilmiy jihatdan tahlil qilingan va ayollarga nisbatan shart sharoitlarni yaxshilash yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Reproduktiv, stereotip gender tenglik, ayol qadri, xotin qizlar qo'mitasi, ezgulik, nafosat, fidoiyilik, taraqqiyot strategiyasi, olima ayol.

Kirish. Har qanday davlat va jamiyat taraqqiyoti bir qator omillar asosida yuz beradi. Bu jarayonda ayollar, ularning ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi ishtiroki, huquq va erkinliklari amalda ta'minlanganligi masalasi – davlatlar rivojining hamda demokratiyaning muhim indeksi sanaladi. Zotan, ayol va uning jamiyat hayotidagi o'rni hamisha muhim mezon bo'lib kelgan.

Har qanday ijtimoiy tuzilma asosida ayollarning reproduktiv imkoniyatlari bilan bir qatorda yangi avlodning shakllanishi va rivojlanishida ham ularning o'rni beqiyos. Jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari mavjud bo'lib, bular qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasligi, ochiqlik va shaffoflikdir.

Asosiy qism. “Meni kishilarimizning ongida paydo bo'lgan stereotip ko'p o'ylantiradi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo'g'onining qo'riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to'g'ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamalakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lishi kerak.

Shavkat Mirziyoyev.

Ayollarga e'tibor chinakam davlat siyosati darajasiga ko'tarildi: uning huquqiy va institutsional asoslari tubdan takomillashtirildi. Mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish faoliyati: ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish; ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish; aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to'g'risida xabardorligini oshirish; huquqni qo'llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy me'yorlar asosida o'qitish kabi asosiy yo'nalishlardan iborat. Mamlakatimizda ayol qadrini yuksaltirish borasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar, albatta, bu borada huquqiy asoslar yaratilganligi va muntazam takomillashtirib borilayotganligi

bilan hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar» deb belgilanganligi mamlakatimizda gender tenglikni ta’minlash, xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi rolini oshirish borasidagi tizimli islohotlar uchun bosh huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

«Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmon bilan 2022–2026 yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha Milliy dastur hamda Milliy dasturni 2022–2023 yillarda amalga oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasi tasdiqlandi. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarishga doir qator maqsad va vazifalar nazarda tutildi. Jumladan, Taraqqiyot strategiyasining 5 ta maqsadida xotin-qizlar masalasiga oid vazifalar belgilangan. «Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash» deb nomlangan 69-maqsadida, jumladan, jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash ko‘zda tutilgan.

Ayollar borasida amalga oshirilgan sa’y-harakatlarning bugungi samarasi ushbu sohadagi institutsional asoslarini tubdan takomillash-tirish bilan uzviy bog‘liq. Modomiki, mustaqillikning ilk davri – demokratik islohotlar boshlanishida gender tenglik masalasi va ayollarning jamiyatdagi roli naqadar muhim ekanligi 1991 yildayoq alohida davlat tuzilmasi – Xotin-qizlar qo‘mitasi shakllantirilishi bilan yana bir bor o‘z tasdig‘ini topgan.

Ayolning baxtli bo‘lishi nafaqat oilada, balki butun jamiyatga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Uni e’zozlagan va hurmat qilgan millatning kelajagi bardavom bo‘ladi. Zero, bugun yurtimizda ayollarga jahon davlatlarining hech birida kuzatilmagan ehtirom va hurmat ko‘rsatilmoqda. Ayol nafaqat bugungi kundagi maqomi va jamiyatdagi obro‘yi eng avvalo uning oilasidagi o‘rni, oila qadriyatiga munosabati hamda farzandlari tarbiyasidagi muvaffaqiyatlariga bog‘liq ekanini chuqur anglashimiz zarur.

Ayol zoti chindan ham o‘z timsolida go‘zallik va nafosat, ezgulik va fidoiylk kabi oliyjanob insoniy fazilatlarini mujassam etganiga yana va yana bir bor ishonch hosil qilamiz. Ayol-borliq ko‘zgusi. Uning nafis go‘zalligi olamni charog‘on etadi, chunki uning niyati pok, o‘zi pok. Barchalarimizga ayonki, onalarni, ayol zotini e’zozlash el-yurtimiz uchun azal-azaldan ezgu qadriyat bo‘lib kelgan. Biz mehr-muhabbat va odamiylikning ilk saboqlarini aziz onalarimizdan, ularning beshigimiz uzra parvona bo‘lib aytgan alla ohanglaridan olamiz. Darxaqiqat, biz hayotimiz mazmuni bo‘lgan

sevgi va sadoqat, mehr-muhabbat, nazokat va latofat kabi eng nozik, sirli tuyg'ularni Yaratganimizning beqiyos mo'jizasi bo'lmish ayol zotisiz aslo tasavvur eta olmaymiz.

Ayol deganda ko'z oldimizga eng avvalo mo'tabar onamiz, qadrli buvijonlarimiz, munis opa-singillarimiz keladi. Ularga qancha e'tibor, g'amxo'rlik qilsak, quvontirishga urunsak baribir ozdir. Chunki, mana shu ayollar dunyoda yangidan-yangi chaqaloq yig'isi eshitalishiga sabab bo'layotgan zotlardir. Dunyoda shunday bir zot borki, uni xar kuni e'zozlasak ham, dillarini hushnud qilishga urunsak ham uning haqqini ado eta olmaymiz. Bu mo'tabar zot- onadir.

Hozirda yurtimizda ayollarga qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rliklar ham taqsiqga loyiq ishdir. Vatanimizda yashayotgan ayollarga ular xohlagan barcha shart-sharoitlar mavjuddir. Mamlakatimizda ayollarga bo'lgan yuksak hurmat-e'tibor va g'amxo'rlikning amaliy isboti sifatida keyingi yillarda xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi ro'li va ta'sirini kuchaytirish, ularning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan 80 dan ortiq milliy va xalqaro hujjatlar qabul qilinganini alohida qayd etish lozim. Xattoki bu ish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, 1999-yil esa «Ayollar yili», 2001 -yil «Ona va bola yili» deb e'lon qilindi. O'zbekiston 1995 yilda Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib Xotin-qizlar kamsitilishining barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiyani ratifikatsiya qilib, undagi mezonlarni amaliyotga joriy eta boshlagan. Bu haqda gapirganda, Xalqaro bolalar jamg'armasi-YuNISEFning Sharqiy Yevropa, Boltiqbo'yi va Mustaqil davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari bo'yicha ofisi onalik va bolalikni muxofaza qilish borasidagi dasturlarni joriy qilishda O'zbekistonni mintaqadagi namuna deb tan olganini qayd etish lozim. Bunday g'amxo'rlikdan ruhlangan ayollarimiz vatan uchun yanada ko'proq o'z hissalarini qo'shishga va mana shu muqaddas zaminni, undagi musaffo osmonni asrashga harakat qilmoqdalar. Bugungi kunda ayollarimiz barcha soxalarda erkin ishlash imkoniyatiga egadirlar. Xoh u maorif bo'lsin, xoh u sanoat sohasi bo'lsin, yoki siyosiy-ijtimoiy, tadbirkorlik va fermerlik sohasi bo'lsin barchasida ayollarimiz mehnat qilish huquqiga egadirlar. Qisqa qilib aytganda, bizning yurt ayollar qadr topgan yurt desak mubolag'a bo'lmaydi. Shunday bo'lsada, har qanday ayol suyukli yor, mehribon ona, fayzli xonadon bekasi sifatida o'rni, e'zozini topgandagina o'zini chinakam baxtli his etadi. Ayollarimizni mana shunday chinakam baxtga ega bo'lishlari uchun erkaklar ham mas'uldir. Zero ayollarga ehtirom-bu buyuklik ramzidir.

Yosh qizlarimiz o'zlarining ilm-fandagi yutuqlari bilan, ayollarimiz turli sohadagi mehnat faoliyatlari bilan, munis onaxonlarimiz esa uzlarining duolari bilan yurtimiz tinchligi va farovonligi uchun xissa qo'shmoqdalar. Mo'tabar keksa onaxonlarimizning qilayotgan duolari yurtimizni har qanday balo-qazolardan asrayotgan bo'lsa ajab emas. Chunki onalarning qilgan duolari yBaratganning huzurida shaksiz ijobatdir.

Ayollarning ilmiy, ziyoli bo'lishiga katta e'tibor qaratilayotgan yurtda yashayapmiz. Ayollar ilmiy faoliyati tahsinga sazovor professor, dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan zakiy, olim ayollarimiz judaham ko'p. Aytish joizki, yaqin yillargacha ilm yo'liga otlangan ayollar qalbida ishonchsizlik, sovuqqonlik paydo bo'la boshlagani ham ko'pchilikka ayon. Prezidentimizning xotin-qizlar ilm olishiga alohida e'tibori bilan bu kabi muammolar ham bartaraf etildi. Bugungi yangilanayotgan jamiyat ayolni ilmsizlik, ma'rifatsizlik kabi tanazzuldan saqlab qolsa, bu eng katta yutuq, deb baholash mumkin. Shu bois, davlatimiz rahbarining ayollarga ilm-fan sohasida ham ko'rsatayotgan e'tiboriga munosib darajadagi ilmiy izlanishlarimiz, kashfiyotlarimiz bilan javob qaytarmog'imiz kerak. Statistik ko'rsatkichlarga nazar solganimizda, yurtimiz ilmiy ta'lim muassasalarida 660 ayol fan doktori, 7 akademik mehnat qilayotgani, Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot institutlarida esa 3 mingga yaqin xotin-qiz tadqiqot olib borayotgani ma'lum bo'ladi. Demak, o'z-o'zidan ravshanki, bu ko'rsatkich hali yanada oshadi. Chunki ilm-fan orzusi bilan yonib yashayotgan xotin-qizlar soni juda ko'p. Har qanday xalqning yetuklik darajasini, avvalo, ayollarning ilmiy-madaniy kamoloti belgilab berishi, oqila va o'qimishli onalar millatning buyuk kelajagini yaratishlari hammamizga yaxshi ayon. Shu bois donishmandlar:

“Bitta qiz bolani o'qitsangiz – butun oilani o'qitgan bo'lasiz”, deb bejiz ta'kidlamaganlar.

Qizlarimizning zamonaviy bilimlar va kasb-hunar egasi bo'lib, jamiyatda hamda o'z oilasida munosib o'rin topishi uchun boshlagan ishlarimizni bundan keyin ham izchil davom ettiramiz. Bu borada, avvalo, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan **Xotin-qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash milliy dasturini** qabul qilamiz. Ushbu hujjat doirasida poytaxtda xotin-qizlar uchun alohida universitet va joylarda uning texnikumlarini tashkil etamiz. Barcha talaba qizlarga ta'lim kontraktlarini to'lash uchun 7 yil muddatga foizsiz kredit berish tartibi joriy qilinadi.

Xulosa. O'zbek ayoli haqida gap ketar ekan, ularning eng avvalo sabr matonati, o'zbekona iffati, farzandlariga bo'lgan mehri, jufti haloliga bo'lgan vafodorligi, shu bilan bir qatorda jamiyatda olib borayotgan ishlari barcha barchasi tahsinga sazovordir. Mustaqillik tufayli ayollarimiz haq huquqlarining e'tiborga olinishi, shuningdek yaqinda Qomusimizga kiritilgan o'zgartirish qo'shimchalar xam keng islohotlarga eshik ochajak deb baralla ayta olamiz. Yulduzlar osmonda bo'lmaydi. Yon atrofingizga qarasangiz, ularni albatta ko'rasiz. Bu-ilm istayotgan ayol, ming bir manbaga termulib umrining yarmini kutubxonalar bilan bog'lagan xotin-qizlar, ilmiy-tadqiqot jarayonlarida hatto o'zini-da unutib, maqsadi uchun kurashgan nozik xilqat vakilasi. Hozirgi kunda ayollar yurtimizda jamiyatda va oilada katta rol o'ynaydi. Xalqimiz tabri bilan aytganda-, „Ayol bir qo'lida beshikni, bir qo'li bilan dunyoni tebratadi,,- deganlari rost. Ayollar salomatligiga davlatimiz tomonidan alohida e'tibor

qaratilmoqda. Chunki jamiyatimiz sog'lomligi, avvalo, xotin-qizlarning qanchalik sog'lom ekani bilan tavsiflanadi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "ona va bola sog'lig'iga e'tibor-jamiyatga, kelajakka e'tibordir". Muxtasar aytganda, jamiyatda ayol qadr-qimmatini, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida davlat bosh islohotchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Zotan jamiyatda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ifoda etish, davlat va jamiyat munosabatlarida ayollarning o'rni va rolini yanada oshirish, ularning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy, sohalarida manfaatlarini himoya qilish masalasi Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans avlodini shakllantirishning asosiy shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ta'lim ayolning o'z salomatligi, shuningdek, uning hamrohi va oilasining sog'ligi haqida xabardorligini oshiradi. Qisqa qilib aytganda, bizning yurt ayollar qadr topgan yurt desak xato bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz (1-jild). Toshkent. O'zbekiston. NMIU, 2017.
2. Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yutr taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T. O'zbekiston. 2017.
3. Kenjayeva, H. P., Tojiyev, F. I, va Jurayev, B. N. O'zbekistonda demokratik jamiyat yaratish va rivojlanishda ayollarning o'rni. Texnologiya va ta'limda innovatsiyalar. - T. 2014.
4. M Seyitnazarov. O'zbekiston respublikasining ayollarga oid davlat siyosati va uning huquqiy asoslari. - N. 2016 y.